



ISSN (E): 2181-4570

Toyloq shevasida qo'llaniladigan etnografizmlar xususida***Jalilova Muxlisa Sharof Rashidov nomidagi******Samarqand davlat universiteti talabasi******Telefon: +998990246678*****jalilovamuhlisa23@gmail.com****Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek tili Toyloq shevasida qo'llaniluvchi nisbatan faol etnografizmlar hamda ularning adabiy til bilan munosabati va areal jihatdan o'ziga xos ayrim xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: etnografizm, faol, lug'at tarkibi, dialekt, sheva, bilingvizm, ikki tillilik sharoiti, leksika, semantika, dialektal leksika, areal leksika, marosim leksikasi, leksikaning sohalarda qo'llanilishi.

O'zbek tili asrlar osha shakllanib, taraqqiy etib keldi. Ajdodlarimiz zakovati tufayli tilimizning noyob javohirlardan iborat so'z xazinasiga yangi so'zlar qo'shib, uning nafosati va imkoniyatlarini beqiyos darajada oshirdi. Tilimiz juda go'zal til. Bu go'zallikni nafaqat adabiy tilimizda, balki shevalarda ham yaqqol ko'ra olamiz. Qadim xalqimizning turmush sharoiti, o'y-xayollari-yu fikrlari, orzu maqsadlari, uning dunyoqarashini biz avvalo, shevalarimizdan ilg'ashimiz mumkin. Nega deganda, uzoq o'tmishdan sas beruvchi yodgorlik ham shevalarimizdir desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman. Shu o'rinda, olima Nigora Murodovaning quyidagi fikrlari yuqoridagi fikarlarimizning mantiqiy davomi bo'ladi: "O'zbek tilining bunday boy va betakror o'ziga xosliklarini, mo'jizalar yarata oladigan, qudratini oshiradigan lisoniy manbalarini aniqlash, ularni avaylab asrash lozim. Shu bois ham shevalarni o'rganish – xalq tili, tarixi, etnik-madaniy hayotini tadqiq etish uchun qimmatli materiallar beradi. Sababi jonli xalq shevalari adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan qadimiy manbadir. Shuning uchun ham shevalarni o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir." [4.6]

Qarluq lahjasi Toyloq tumani shevasi qatlamining rang-barangligida namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur hududda aholi nutqida uchraydigan so'zlarni o'zbek adabiy tilidagi va boshqa shevalardagi lug'aviy birliklar bilan qiyoslash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash shevalarning bugungi holatini baholash imkonini beradi. O'zbek tilining Toyloq shevasida qo'llaniladigan so'zlarning leksik-sematik xususiyatlari juda xilma-xildir. Ikki tilning aralashuvi natijasida yuzaga kelgan ayrim





soʻzlar semantik jihatdan koʻproq etnografizmlarda oʻz aksini topgan. Sababi, tojik millatiga mansub xalq vakillari bilan doimiy aloqa aralashuv hamda quda-andachilik munosabatlari etnolingvistikada umumiylik kasb etgan.

Etnografizmlar. Bu guruhga mahalliy-milliy urf-odat, diniy, madaniy toʻy marosim va motam nomlari kiradi. Iqon shevasi bunday soʻzlarga juda boy. Shuningdek, olqish, qargʻish maʼnolarini ifoda qiluvchi soʻzlarni ham etnografik leksikaga kiritish mumkin, chunki ularda ham xalqning oʻziga xos ruhiyati, eʼtiqod va nafrati oʻz ifodasini topgan.

Gävrbännän – Oʻzbek xalq shevalar lugʻatida bu soʻzga quyidagicha taʼrif berilgan: (Qashqadaryo) chaqaloqni beshikka solish marosimi. [3.63] Haqiqatan ham, chaqaloq tugʻilganidan koʻp oʻtmay Yoshi ulugʻ insonlar tomonidan beshikka solish marosimi oʻtkaziladi. Bizni sheva bilan aytganda, beshikka belanadi. Misol uchun, Gävräbännängä kó:p kämpirlä: kegän.

Hälbä (sochaloq) säcär – bu marosim chaqaloqni beshikka solish marosimi bilan birgalikda oʻtkaziladi. Sochaloq marosimi ham deyiladi. Yaʼni bunda chaqaloqning onasi yoki buvisi tomonidan kichik bolalarga holva, turli-xil shirinliklar ulashiladi yoki bolalarning ustidan sochiladi. Kim koʻproq tersa oʻshanga pul ham berishadi. Soʻz (soch+a+loq.) -Loq bu yerda kichraytirish maʼnosida kelib, marosimga yaqin maʼno berishga xizmat qilgan. Misol, Sochaloqqa buncha koʻp bachala kelipti.

Xayāshi – (xay- ha (undov soʻz) + osh) unashiruv marosimiga nisbatan qoʻllaniladigan atama. Bu soʻzni oʻzbek xalq shevalar lugʻatidan ham, izohli lugʻatdan ham topmadik. Qiz tomonidan yigit tomonga rozilik berilgandan soʻng oʻtkaziladigan marosim. Yaʼni “ha” soʻzi shevamizda “xay” soʻzi bilan ifodalangani uchun ham bu soʻz yasalgan. Masalan, Qizimni xayoshisini oʻtkaziv olluk bir balo qilib.

Röbinän - (fors-toj. roʻy-yuz, bin-koʻrmoq+on qoʻshimcha) yuz ochar marosimiga nisbatan ishlatiladi. Mazkur soʻz ham shevalar lugʻatidan joy olmagan. Bu soʻzning adabiy tildagi muqobili qilib, kelin salom marosimini olishimiz mumkin. Yangi kelinning yuz ochishi uchun uning yaqinlari tomonidan sovgʻa-salom beriladi. Shundan soʻng kelin yuzini ochib, yaqinlariga salom beradi. Misol, Man röbinänni uygamas, restoranga qlishim kerak.

Libāspōshān – (fors-toj. libos-kiyim, poʻshidan-kiymoqʻ) - kuyovga kiyim kiygizish marosimi shunday atama bilan ataladi. Bu soʻz ham etnik jihatdan faqat biz tomonida ishlatiladi. Soʻz izohli lugʻatda ham, shevalar lugʻatida ham berilmagan. Kelin





tomonidan kuyovga chopon va shunga o'xshash liboslar kiygiziladi. Odatda, bu marosim faqat erkaklar tomonidan to'ydan biroz avval o'tkaziladi. Misol, libāspōshānga apangni qaynotasiniyam ayt, balam.

Kārdū – (fors-toj. kardan-qilmoq) kelinning uyiga kuyov tomonidan vakillar borib, to'y qanday o'tkazilishi, qachon va qayerda o'tkazilishi, bundan tashqari, to'y xarajatlarning miqdorini aniqlash uchun maslahatlashishadi. Bu marosim ham ikki tomonning hurmatga loyiq, kayvoni erkaklari tomonidan amalga oshiriladi. Fikrimcha, bu marosim boshqa joylarda sut puli, qalin puli deyiladi. Misol, kārdāga kegan erkaklani yarmini tanimadim, kimligini keyin aytti bilim.

Mustaqillikning keyingi davrlarida o'zbek shevalarining o'rganilishiga davlat ahamiyati sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi, o'zbek shevashunosligida shu kunga qadar o'rganilmagan shevalar tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi, shevashunoslikning lingvistik geografiya sohasida jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Va amalga oshiriladigan ishlar hamda vazifalar ko'p. Shevalarni qacha o'rgansak, biz nafaqat tilni balki tarixni ham qayta o'rgangan, uning ochilmagan sahifalarini ham ochgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016. – 176 b.
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 1978.
3. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent, 1972.
4. Xidraliyeva Z. O'zbek tili Iqon shevasi. Avtoreferat. – Toshkent, 2023.
5. Islamova D., Jalilova M. Some comments on Uzbek folk proverbs. Asian Journal of Multidimensional Research Journal. Volume: 10, Issue: 5. – India, May 2021. – P.410-414. (Impact factor: SJIF 7.69.) DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00424.9 <https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=10&issue=5&article=061>

